


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

Chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,7% o'sdi.

Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 26,2 foizni tashkil etdi va o'sish sur'ati o'tgan yilning shu davriga nisbatan 115,6 % ga o'sdi.

2019 yil yanvar-mart oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)




2018 yilning shu davriga nisbatan Toshkent shahrining barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Yakkasaroy tumani 123,3%, Mirzo-Ulug'bek tumani 113,9% Sergeli tumani 112,7 % Yunusobod tumani 112,5%, Chilonzor tumani 110,6%, da qayd etilgan bo'lsa, ayrim tumanlarda, jumladan, Shayxontoxur tumani 92,2 %, Uchtepa tumani 101,9% hamda Bektemir tumanlarida 102,8% nisbatan past ko'rsatkichlar qayd etilgan.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 429,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 105,1% ga o'sdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 5,8 % ni tashkil etdi.

Tumanlarning umumiy ovqatlanishdagi ulushi


(jamiga nisbatan foizda)



Umumiy ovqatlanish tashkilotlari savdo aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Chilonzor tumani 15,6%, Yunusobod 15,1%, Shayxontoxur tumani

11,1 %,Sergeli tumani 11,6%, tashkil etgan bo'lsa, Yashnobod tumani 4,7 % Bektemir tumani 4,1 % va Mirobod tumani 7,0% ulush bilan eng past ko'rsatkichni qayd etdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi
(jamiga nisbatan, foizda)



Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 26,2 % ni tashkil etib, chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Chilonzor tumani (16,2 foiz), Shayxontoxur tumani (11,8 foiz), Uchtepa tumani (11,2 foiz), va Yunusobod tumani (10,4foiz) bilan chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 2932,9 ming. so'mni tashkil etdi. O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Bektemir tumani (23956,0 ming. so'm), Chilonzor tumani (4889,3 ming. so'm), Yakkasaroy tumani (4517,5 ming. so'm), Mirobod tumani (3771,1 ming. so'm) Uchtepa (3095,8 ming. so'm), kuzatildi.




Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	o'tgan yilning shu davriga nisbatan, foizda
Toshkent shahri	2932,9	104,7
tumanlar:		
Uchtepa	3095,8	100,8
Bektemir	23956,0	99,2
Yunusobod	2543,1	110,7
Mirzo Ulug'bek	1357,0	112,5
Mirobod	3771,1	107,6
Shayxontoxur	2572,3	90,1
Olmazor	1099,7	99,3
Sergeli	2654,8	109,0
Yakkasaroy	4517,5	121,9
Yashnobod	2247,2	105,9
Chilonzor	4889,3	108,3

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi


(o'sish su'radi o'tgan yilga nisbatan, foizda)



2018 yil yanvar-mart oylarida chakana savdo tovar aylanmasi Toshkent shahar bo'yicha aholi jon boshiga 2932,9 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,7 %ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019 yilning yanvar-mart oyida o'tgan yilga nisbatan Toshkent shahrida eng yuqori o'sgan Yakkasaroy tumani 121,9% Yunusobod tumani 110,7 % Mirzo-Ulug'bek tumani 112,5 % Chilonzor tumani 108,3 % va Mirobod tumani 107,6 % tumanlar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha o'sish sur'ati eng kam ko'rsatkichlar Shayxontoxur tumani (90,1%) Bektemir tumanida (99,2%) qayd etilgan.

Kichik korxonalar va Mikrofirmalar ulushi

(jami chakana savdo aylanmasidan)




Kichik korxonalar va mikrofirmalar jami chakana savdo tovar aylanmasida ulush eng katta bo'lgan tumanlar: Mirzo-Ulug'bek tumani (67,2%), Olmazor tumani (49,1%), Chilonzor tumani (32,6%), Yunusobod tumani (24,0%), Bu tumanlar Toshkent shahrining chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib kelmoqda. Shu bilan birga past ko'rsatkichlarga ega tumanlar ham bor, jumladan, Yakkasaroy tumani (16,0%), Bektemir tumani (9,0%), Sergeli tumani (27,5%) hissasiga to'g'ri kelgan.


2019 yil yanvar-mart oylarida ulgurji savdo

2019 yil yanvar-mart oylarida ulgurji tovar aylanmasi hajmi 6349,6 mlrd. so`mni yoki 2018 yilning shu davriga nisbatan 100,8 % ni tashkil qildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar 5425,0 mlrd. so`mga yetib, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 85,4 % ni tashkil qildi.




Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdodagi ulushi jami savdoga nisbatan (%)



Kichik korxonalar va mikrofirmalarning eng ko'p ulushga ega tumanlarga Uchtepa tumani (98,8%), Shayxontoxur tumani (97,3%), Sergeli tumani (92,1), Yunusobod tumani (90,9%) va Bektemir tumani (95,4%), eng past ulush esa Yakkasaroy tumanlariga (73,9%), Olmozor tumani (83,1 %) va Mirobod tumani (82,7%), to'g'ri kelgan.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi ulushi

(jamiga nisbatan foizda)




Ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan tumanlar Yakkasaroy tumani 17,6 %, Mirzo Ulug'bek tumani 14,5 %, Yunusobod tumani 11,8 %, Mirobod tumani 10,5%, Olmozor tumani 9,9 % tashkil etgan bo'lsa, shu bilan bir qatorda ba'zi bir tumanlar ya'ni Bektemir tumani 1,4 %, Uchtepa tumani 4,9%, Sergeli tumani 5,0 %, Yashnobod tumani 6,8 jamiga nisbatan eng past ko'rsatkichlarni qayd etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi jamiga nisbatan



Ulgurji tovar aylanmasida kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi eng yuqori Yakkasaroy tumani 15,3%, Mirzo Ulug'bek tumani 13,4 %, Yunusobod tumani 12,6 %, Mirobod tumani 10,2% Chilonzor tumani 10,2 %, hamda eng kam ko'rsatkichni Bektemir tumani 1,6% qayd etgan.



TOSHSSTAT

Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi bo'limi.
Abdurayimov J.J
Tel: 230-88-20 (21)